

OILAVIY MUNOSABATLAR ODOBI VA PSIXOLOGIYASI

Shukurova Ugiloy Umarovna

PhD GulDPI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14633930>

Anontatsiya. Maqolada oilaviy munosabatlarning odobi va psixologiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Unda oila a'zolari o'rtasidagi sog'lom munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hurmat, mehr-oqibat, samarali muloqot va konfliktlarni hal qilishning psixologik asoslari ko'rib chiqiladi. Maqola oilaviy baxt va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: oila, er-xotin, munosabat, harakter, hurmat, muloqot, ota-ona, muhit.

Аннотация. В статье анализируется взаимосвязь этики и психологии семейных отношений. В нем рассматриваются психологические основы уважения, доброты, эффективного общения и разрешения конфликтов, которые важны для построения здоровых отношений между членами семьи. В статье даны практические рекомендации, направленные на обеспечение семейного счастья и благополучия.

Ключевые слова: семья, пара, отношения, характер, уважение, общение, родители, окружение.

Annotation. The article analyzes the relationship between the ethics and psychology of family relations. It examines the psychological foundations of respect, kindness, effective communication, and conflict resolution, which are important in building healthy relationships between family members. The article provides practical recommendations aimed at ensuring family happiness and well-being.

Key words: family, couple, relationship, character, respect, communication, parents, environment.

Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi – ya'ni, yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo'lib qolgan va Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtidan kelib vaqtinchalik O'zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig' emas. Shu ma'noda oila – inson o'z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsadmuddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir. Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va

XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog' omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli bahtiyor his etadi.

Oilalarda munosabatlar o'ziga xos, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa er-xotinga kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlarda tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Albatta, oila yuzaga kelar ekan, ular bir-birlarini sevib turmush qurishganmi, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, sovcilik, hisob tufaylimi yoki stereotip bo'yichami, qanday bo'lishidan qat'inazar nikohning ilk kunlarida ularning bir-birlariga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarida, er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda emotsional ko'tarinkilik, hissiy rang-baranglik darajasi yuqori bo'ladi. Bir-birlarini ma'lum bir muddat sevishib oila qurgan juftlarda bunday emotsional ko'tarinkilik darajasi nihoyatda yuqori bo'ladi. Chunki ular bir necha yil kutib, intilib yashagan, visol damlariga nihoyat yetishgan bo'ladilar. Bunday juftlar nikohi boshida er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda ko'tarinkilik, bir-birlariga emotsional intilish juda yuqori darajada bo'ladi. Nafaqat sevishib oila qurganlar, balki deyarli barcha otivlarga ko'ra oila qurgan yoshlarda ham nikohning boshida er-xotin o'zaro munosabatlarida bir-biriga yaqinlik, bir-birini qadrlash, hurmat qilish nisbatan yuqori bo'ladi. Ularning bir-birlariga, o'z nikohlariga, o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari haqidagi niyat, orzu, umidlari ezgu, ijobiy bo'ladi. Chunki hech kim va hech qachon ertaga bo'lajak turmush o'rtog'im, yangi oilamning yangi a'zolari bilan nizo-janjalga boraman, ular bilan urishaman va oxir-oqibatda oilam buzilib, ajrashib ketaman, deb oila

qurmaydi (Ayrim hollarda majburan oila qurganlar bundan m ustasno). Inson oila qurarekan ahilinoq yashab, m urod-m aqsadga yetishishni orzu qiladi, nikoh arafasida va nikoh kechasi ham barcha yaqin birodarlar, qarindosh - urug'lar, to'yga taklif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. Shuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o'rtog'i timsolida, o'zining shu orzu istaklariga, murod-maqсадlariga yetishishda yordam beruvchi, uni qo'llab-quvvatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o'z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga im kon qadar shunday ijobiy, iliq munosabatda bo'lishga harakat qiladi.

Oilaviy munosabatlar odobi va psixologiyasi oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning muvaffaqiyati va baxtli hayotning asosiy omili hisoblanadi. Bu ikki jihat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilaviy hayotning barqarorligi va farovonligiga ta'sir qiladi.

Oilaviy Munosabatlar Odobi:

Oilaviy odob – bu oila a'zolari o'rtasidagi hurmat, mehr-oqibat, o'zaro tushunish va hamjihatlik asosida qurilgan xulq-atvor qoidalari majmuasi. U quyidagi elementlardan iborat:

- * Hurmat: Har bir oila a'zosining fikrlarini, his-tuyg'ularini va shaxsiy chegaralarini hurmat qilish.

- * Mehribonlik: O'zaro mehr-oqibat, yordam berish va qo'llab-quvvatlash.

- * To'g'ri muloqot: Fikrlarni ochiq va halol ifodalash, tinglash va bir-birini tushunishga harakat qilish. Qichqiriq, haqorat va tahdidlardan saqlanish.

- * Mas'uliyat: Oila a'zolarining o'z majburiyatlarini ado etishga mas'uliyatli yondashuvi.

- * O'zaro yordam: Qiyinchilik va muammolarda bir-birini qo'llab-quvvatlash.

- * Hamjihatlik: Birgalikda vaqt o'tkazish, umumiy manfaatlar va qiziqishlarni topish.

- * Kechirimlilik: Xatolarni kechirish va yangi boshlanishga tayyor bo'lish.

- * Shaxsiy chegaralarga hurmat: Har bir a'zoning shaxsiy hayotiga aralashmaslik.

Oilaviy Munosabatlar Psixologiyasi:

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning psixologik asoslarini, ularning shaxsning rivojlanishiga ta'sirini va oilaviy muammolarni hal qilish usullarini o'rganadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- * Shaxsiy munosabatlar: Oila a'zolari o'rtasidagi bog'lanishning sifati, yaqinlik darajasi va o'zaro ishonch.

- * Rollarning taqsimoti: Oila a'zolarining o'zaro rollarining taqsimlanishi va ularning bajarilish uslublari.

* Konfliktlarni hal qilish: Oiladagi konfliktlarning sabablari va ularni hal qilishning samarali usullari.

* His-tuyg'ularni boshqarish: Oila a'zolarining o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati va o'zaro munosabatlarga ta'siri.

* Oilaviy tizim: Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro bog'liqligi va oilaviy tizimning yaxlitligi.

* Ota-ona va farzand munosabatlari: Ota-onalarning tarbiya uslubi va farzandlarning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri.

* Turmush o'rtoqlar munosabatlari: Turmush o'rtoqlar o'rtasidagi sevgi, hurmat va ishonchning ahamiyati.

Oilaviy munosabatlarning muvaffaqiyati uchun oila a'zolari odob va psixologiya tamoyillarini birgalikda qo'llash kerak. Bu doimiy ravishda muloqot qilish, bir-birini tushunishga harakat qilish, mas'uliyatni o'rtoqlashish va qiyinchiliklarni birgalikda engishni talab qiladi. Muammolar yuzaga kelsa, professional psixolog yordamiga murojaat qilish foydali bo'lishi mumkin. Oilaviy terapiya oila a'zolariga o'zaro munosabatlarini yaxshilashga, muammolarni hal qilishga va birgalikda baxtli hayot kechirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. G'.Shoumarov«Oila psixologiyasi»Toshkent-2011
2. V. Karimova « Oila psixologiyasi » Toshkent-2007
3. D.Arapbaeva,N.Kurbonova ,N.Toshpolotova «Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari»metodik qo'llanma Toshkent-2019